



LEGAL TEXNOLOGIYALARNING YURISTLAR FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNI

Azimaxon Jo'raqulova

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs talabasi

+998 97 785 66 65

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17512646>

ARTICLE INFO

Received: 1st November 2025

Accepted: 2nd November 2025

Published: 3rd November 2025

KEYWORDS

Huquqiy texnologiyalar, yuristlar, sun'iy intellekt, raqamli qurilmalar, yurisprudensiya, Legal Tech, usullar, huquqshunoslik sohasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Legal Tech nima ekanligi, uning afzalliklari va nega huquqshunoslar uchun muhim ekanligi to'liq yoritilgan. Hamda, huquqiy texnologiyalarning yuristlar faoliyatida tubdan yasagan o'zgarishlari to'g'risida fikr yuritilgan. Shu bilan birga, texnologiyalar huquq sohasiga ko'rsatayotgan ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilingan. Maqolada yangi o'zgarishlar ortidan yuz berayotgan inqiloblarning foydali va xavfli tomonlari ochib berilgan va yaxshilanishlar uchun taklif va tavsiyalar keltirilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, legal texnologiyalar huquqshunoslar uchun bir qancha qulayliklar yarata oladi, vas shu bilan birga muammolarga ham sabab bo'lishi mumkin.

XXI asrda yashayotganimizni hisobga olganda, texnologiya deyarli barcha sohalarga kirib kelishga ulgurdi. Ko'plab jihatlari, jumladan tezlik va qulaylik texnologik qurilmalarni insonlar orasida yanayam keng tarqalishiga imkon yaratib berdi. Shu sababdan ham turli soha vakillari buni ijobiy rivojlanish ramzi sifatida ko'rib, shak-shubhasiz qabul qilishdi. Zero, huquqshunoslik sohasi ham bundan mustasno emas edi. Minglab hujjatlarni o'rganish va ko'rib chiqishni talab qiladigan ushbu soha uchun ham avtomatlashtirish va elektronlashtirish juda ham muhim. Shu bilan bir qatorda, yurisprudensiya sohasida yillar davomida mavjud bo'lgan, bir qarashda yechimi yo'qdek tuyuladigan muammolar borligi ham hech kimga sir emas. Shu kabi masalalarning kaliti esa aslida zamonaviy va rivojlanayotgan texnologiyalarda bo'lish ehtimoli anchagina yuqori. Yuqorida keltirilgan o'zgarishlar hozirgi kunda sodir bo'lishni allaqachon boshlab yuborgan. Texnologiya sohasida "Mur qonuni" (Moore's law) shuni ta'kidlaydiki, sig'im taxminan har ikki yilda ikki baravar ortadi.¹ Shunga o'xshash hodisani endilikda yuridik kasblarda ham kuzatish mumkin. Go'yoki har safar orqaga qaraganda, yuridik kasblar yangi savollar, yangi muammolar va yangi bosimlar – qisqasi, yangi sinovlar bilan yuzma-yuz kelmoqda.

Legal Tech – bu yuridik sohani raqamli texnologiyalar bilan qamrab oluvchi, yuridik xizmatlarni avtomatlashtirgan tarzda ko'rsatish, shuningdek yuridik masalalarni raqamli texnologiyalar yordamida yechishga qaratilgan yurisprudensiya va axborot texnologiyalari

¹ Moore's Law, INTEL (2005), ftp://download.intel.com/museum/Moores_Law/Video -Transcripts/Excepts_A_Conversation_with_Gordon_Moore.pdf. Minutes of April 29–30, 2010 Meeting of the ABA Commission on Ethics 20/20.

sohalari uyg'unligida hosil bo'lgan yo'nalishidir.² Bularga sun'iy intellekt(AI), bulutli gajjetlar(clouds), blokcheyn va ma'lumotlarni tahlil qilish kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Bu atama AQShda taxminan 2010-yildan boshlab qo'llanila boshlangan bo'lib, "yuridik xizmat" ("legal service") va "texnologiya" ("technology") so'zlarining birikmasidan kelib chiqqan.³ Dastlab bu atama yangi paydo bo'layotgan IT xizmatlari sohasiga kuchli qiziqish bildirgan startaplar (startups) hamjamiyati tomonidan ishlatilgan. Hozirgi kunga kelib ushbu texnologiyalar huquqshunoslar faoliyatida ko'plab qulayliklar yaratib bermoqda. Quyida Legal texnologiyalarning foydali tomonlari bilan tanishib chiqishimiz mumkin, jumladan:

Samaradorlik va unumdorlikning oshishi:

Sun'iy intellekt(AI) kabi ilg'or mashinaviy vositalarning paydo bo'lishi bilan huquqiy texnologiyalar yuristlarga hujjatlarni ko'rib chiqish, shartnomalarni tahlil qilish va huquqiy tadqiqotlar kabi muntazam ishlarni avtomatlashtirish imkonini bermoqda. Bunday yangi rivojlanishlar ish jarayonlarini soddalashtiradi, inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytiradi va vaqtni tejaydi. Natijada samaradorlik va unumdorlik ortadi.

Yuqori sifatdagi xizmatlar:

Hozirgi kunda mijozlar yuristlardan zamonaviy va samarali xizmat tajribasini kutishadi. Yuristlar huquqiy texnologiyalarni qo'llash orqali tezroq, aniqroq va arzonroq yuridik xizmatlar ko'rsatishlari mumkin.⁴ Bu esa mijozlarning qoniqish darajasini va ishonchini oshirishga olib keladi. Natijada esa, ishda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ba'zi muammolar oldi olinadi.

Tejalgan vaqt va qisqargan ulkan xarajatlar:

Dastlab texnologiya katta miqdorda sarmoya talab etishi mumkin, biroq qisqa muddatda bu yanayam katta xarajatlarni tejashga olib kleadi.⁵ Masalan, bulutli texnologiyalarga sarmoya kiritish qiymatbaho serverlar va uskunalar o'rnatishga ketadigan chiqimlarni yo'qotadi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt asosidagi huquqiy tadqiqot vositalari an'anaviy tadqiqot usullariga nisbatan vaqt va xarajatni sezilarli darajada kamaytiradi.

Ma'lumotlarni himoya qilishning yaxshilanishi:

Texnologiyalardan foydalanish ortib borayotganligi sababli, yuridik firmalar ma'lumotlar xavfsizligida tobora ko'proq xavotirlanmoqda. Maxfiy hujjatlar va nozik ma'lumotlarni himoya qilish yuridik sohada eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biridir. Bulutga asoslangan yechimlar nafaqat fayllarga masofadan xavfsiz kirish imkonini beradi, balki an'anaviy qog'oz asosidagi saqlash tizimlariga nisbatan yanada yuqori darajadagi himoyani ta'minlaydi.⁶ Huquqiy texnologiyalar rivojiga hamnafas bo'lib borayotgan yuristlar mijoz ma'lumotlarini himoya qilish va maxfiylikni ta'minlash uchun eng yaxshi amaliyotlar va ilg'or vositalarni joriy

² SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH International scientific online conference, O'zbekistonda legal tech rivojlanish bosqichlari, M.Sadikov (Tdyu katta o'qituvchisi), Noyabr 2022y, <file:///C:/Users/user/Downloads/M.Sadikov+.pdf>

³ Hartung, M.Bues & Halbleib, G. (2017). Legal tech. Munich: CH Beck.

⁴ Future law, May 26-27 – Tallinn, Estonia.

⁵ <https://new.civil.uz/2024/12/31/>, legaltech huquqshunoslik sohasidagi texnologik inqilob.

⁶ Tech report: Legal Tech, Lucia Latorre, Carlo Magno, Rivera Stephanie, Rocio Miles, Emeli Ozcoidi. In collaboration with IDB, e CC BY 3.0 IGO 9/32ps

etishlari mumkin. Buning oqibatida esa mavjud va sodir etilishi mumkin bo'lgan kiber jinoyatlar oldi olinishi ehtimol.

Har qanday holatda samarali faoliyat:

Mavjud bo'lgan tushunmovchiliklar yuzasidan texnologiya orqali har qanday vaqt va joyda ma'lumot olish mumkin. Masalan, pandemiya davrida keng qo'llanilgan videoaloqa (videokonferensiya) tizimlari ilgari huquqiy xizmatlardan foydalanishda to'siqlarga duch kelgan insonlar uchun katta imkon yaratdi. Qo'shimcha qilib aytganda, ishlarni boshqarish dasturlariga kiritilgan huquqiy yordam vositalari ma'muriy yukni kamaytirdi va uni o'rniga mijoz ehtiyojlariga ko'proq e'tibor qaratish imkonini berdi.

Har yaxshining bir yomoni bo'lgani kabi, huquqiy texnologiyalar yuqorida ta'kidlab o'tilgan qulayliklarni yaratish bilan bir vaqtda, bir qancha muammoli holatalarga ham sabab bo'lmoqda. Masalan:

Intellektual mulkka oid xavotirlar:

Generativ sun'iy intellekt (AI) ko'plab intellektual mulk (IP) bilan bog'liq jihatlar va noaniqliklarga ega. Bu xavflarni to'liq bartaraf etish imkonsiz bo'lsa-da, quyidagi omillar ushbu rivojlanayotgan texnologik sohada intellektual mulk masalalarini hal etishda korxonalar va tashkilotlar uchun foydali bo'lishi mumkin.⁷ Deyarli barcha LegalTech kompaniyalari katta hajmdagi ma'lumotlar asosida o'qitiladigan sun'iy intellekt modellaridan foydalanadi. Ammo agar bu ma'lumotlardan rasmiy ruxsatsiz foydalanilsa, bu jiddiy intellektual mulk muammolariga sabab bo'ladi. Ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish huquqiy nizolarni keltirib chiqarib, kompaniyaning raqobatbardoshligini pasaytirishi mumkin.

Adolatda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf:

Sun'iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) asosida o'rganadi. Ushbu ma'lumotlarda xatolar yoki ijtimoiy notenglik aks etgan ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Natijada, bunday tizimlar diskriminatsion qarorlar chiqarishi ehtimoli mavjud, bu esa ayniqsa adliya sohasida xavfli. LawGeex tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda yuristlar va sun'iy intellekt (AI) ning ish samaradorligini taqqoslandi. Bunda BMTning 20 ta yuqori malakali yuristi va AI tizimi bir xil huquqiy topshiriqni bajarish uchun jalb etildi. Natijalarga ko'ra, yuristlarning o'rtacha aniqlik darajasi 85 %, AI tizimini esa 94% ni tashkil etdi⁸. Yuristlardan 92 daqiqa olgan bu vazifani sun'iy intellekt atigi 26 soniya ichida bajardi. Ammo AI bilan bog'liq muammo shunda ediki, u ilgari yaratilgan hujjatlar yoki sud qarorlaridagi subyektivlik va kamsitishlarga, jumladan irqchilik va adolatsizlikka o'rganib qolishi mumkin, chunki AI ijtimoiy ziddiyatlarni tushinish qobiliyatiga ega emas.

Yuristlar uchun asosiy bo'lajak raqiblar:

Huquq sohasi o'zining qat'iy va aniq qoida tizimi tufayli sun'iy intellekt tadqiqotchilari uchun dastlabki tajriba sohasiga aylangan. Ko'plab huquqiy xizmatlarni avtomatlashtirish mumkin: huquqiy tadqiqotlar, shartnomalarni ko'rib chiqish va qayta ishlash, shuningdek, sud ishlarining natijalarini oldindan tahlil qilish kabi qo'llanmalar bunga misol bo'lishi mumkin.

⁷ WIPO's IP and Frontier Technologies Division, drawing on commissioned work by Matt Hervey (Gowling WLG, United Kingdom).

⁸ <https://prismlegal.com/ai-beats-lawyers-nda-review-accuracy-lawgeex-study> Artificial Intelligence vs. Human Lawyers: Artificial Intelligence — 94% Accurate, Humans — 85% Accurate by [Joel A. Webber](#), march 12, 2018.

Goldman Sachsning 2023-yilgi hisobotida qayd etilishicha, huquq sohasi avtomatlashtirish darajasi eng yuqori bo'lgan sohalar ichida ikkinchi o'rinda bo'lib, huquqiy ishlarning 44 foizi sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirilishi mumkinligi taxmin qilingan.⁹ Bundan shuni xulosa qilish mumkin, yaqin kelajakda texnologiya yuristlik kasbiga xavf solish ehtimoli yuqori.

Kiberxavfsizlik va ehtimoliy nosozliklar:

Kiberxavfsizlik — legal texnologiyalar sanoatining ajralmas qismi hisoblanadi. Yuridik firmalar va huquq sohasi mutaxassislari uchun bu mijozlarning maxfiy ma'lumotlarini himoya qilish, ishonchni saqlash hamda qonuniy talablarni bajarish uchun zarurdir. Kiberxavfsizlik huquqiy javobgarliklarni kamaytirishga, intellektual mulkni himoya qilishga va o'zgaruvchan tahdid hamda xatarlarga qarshi biznes barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.¹⁰ Huquqiy texnologiyalar orqali bajarilayotgan va ularda saqlanayotgan ma'lumotlar hakkerlar hujumiga uchramaydi deb hech kim kafolat bera olmaydi. Agarda bu holat kuzatilsa, maxfiylik va texnik xavfsizlik qoidalarida suite'molliklar yuzaga keladi. Bundan tashqari, Legal texnologiyalarda vujudga kelishi mumkin bo'lgan nosozliklar ma'lum vaqt davomida kerakli ma'lumotlarni olish va ulardan foydalanishga to'sqinlik qilishi mumkin. Oqibatda esa, huquqiy ishlar natijalarini mijozlarga yetkazishda kechikishlar va kelishmovchiliklar kelib chiqishini aniq.

Darvoqe, yurtimizda ham yurisprudensiya sohasida bir qator texnologik turli qulayliklar va shu bilan birga shart-sharoitlar ham yaratilmoqda. Ular yuzasidan bir qancha normativ huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, maqsadi elektron hujjat aylanishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lgan "Elektron hujjat aylanishi" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ham aynan huquqshunoslik sohasida texnologiyalarni keng qo'llashdagi ilk qo'yilgan qadamlar bo'ldi. Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5987-son Farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirish grafigining 33-bandiga muvofiq Toshkent davlat yuridik universiteti Huquqiy tashabbuslar va innovatsiyalar markazi huzuridagi Legal Tech laboratoriyasi tashkil etilgan. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2020-yil 10-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6079-son Farmonida mamlakatimizda davlat boshqaruvi sohasini rivojlantirish xususan, mamlakat miqyosida sifatli va talab yuqori bo'lgan elektron davlat xizmatlarini yanada kengaytirish, bosqichma-bosqich barcha davlat xizmatlarini raqamli shaklga o'tkazish nazarda tutilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2022-yili 12-oktabrda qabul qilingan "Elektron raqamli imzo" to'g'risidagi 793-sonli Qonunida elektron raqamli imzoning mavjud bo'lishi talab qilinadigan elektron xizmatlar barcha turlarining ochiqligini va sifatini ta'minlash, shuningdek elektron raqamli imzodan foydalanish uchun huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnik va boshqa shart-sharoitlar yaratish kabi asosiy yo'nalishlar belgilab qo'yilgan.

11

⁹Ranking Industries by Their Potential for AI Automation, by Marcus Lu, 27 June, 2023.

¹⁰<https://www.lexzur.com/intersection-between-legal-tech-and-cybersecurity/>

¹¹ <https://lex.uz/docs/-6234904>

Xulosa qilib aytganda, legal texnologiyalar yuristlar faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. Ular ish samaradorligini oshiradi, hujjatlar bilan ishlashni yengillashtiradi va huquqiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik, ma'lumot maxfiyligi va inson omilining kamayishi kabi muammolar ham yuzaga kelmoqda. O'zbekiston qonunchiligida bu yo'nalish asta-sekin rivojlanib, huquqiy tizim raqamlashtirish jarayoniga moslashmoqda. Eng muhimi, yuristlar yangi texnologiyalarni to'g'ri qo'llab, ularni adolat va inson manfaatiga xizmat qildirish zarur. Shu o'zgarishlar natijasida yurist kasbi yanada zamonaviy, raqobatbardosh va global talablarga mos shaklga kelyapti. Kelajak yuristlari texnologiyani chuqur bilgan, innovatsion fikrlovchi mutaxassislar bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Moore's Law, INTEL (2005), [ftp://download.intel.com/museum/Moores_Law/Video - Transcripts/Excepts_A_Conversation_with_Gordon_Moore.pdf](ftp://download.intel.com/museum/Moores_Law/Video_Transcripts/Excepts_A_Conversation_with_Gordon_Moore.pdf). Minutes of April 29-30, 2010 Meeting of the ABA Commission on Ethics 20/20.
2. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH International scientific online conference, O'zbekistonda legal tech rivojlanish bosqichlari, M.Sadikov (Tdyu katta o'qituvchisi), Noyabr 2022y, <file:///C:/Users/user/Downloads/M.Sadikov+.pdf>
3. Hartung, M.Bues & Halbleib, G. (2017). Legal tech. Munich: CH Beck.
4. Future law, May 26-27 – Tallinn, Estonia.
5. <https://new.civil.uz/2024/12/31/>, legaltech huquqshunoslik sohasidagi texnologik inqilob.
6. Tech report: Legal Tech, Lucia Latorre, Carlo Magno, Rivera Stephanie, Rocio Miles, Emeli Ozcoidi. In collaboration with IDB, e CC BY 3.0 IGO 9/32ps
7. WIPO's IP and Frontier Technologies Division, drawing on commissioned work by Matt Hervey (Gowling WLG, United Kingdom).
8. <https://prismlegal.com/ai-beats-lawyers-nda-review-accuracy-lawgeex-study> Artificial Intelligence vs. Human Lawyers: Artificial Intelligence — 94% Accurate, Humans — 85% Accurate by [Joel A. Webber](#), march 12, 2018.
9. Ranking Industries by Their Potential for AI Automation, by Marcus Lu, 27 June, 2023.
10. <https://www.lexzur.com/intersection-between-legal-tech-and-cybersecurity/>
11. O'RQ-793-son, Elektron raqamli imzo to'g'risidagi qonun.